IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHI MAMLAKATNING IQTISODIY TARAQQIYOTIDA MUHIMLIGI

Ortiqboyeva Mushtariy

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasi, dotsent, Umirov Abdisalom To'rayevich taqrizi ostida

Annotatsiya: Ushbu tezisda innovatsiya va texnologiyalar iqtisodiyot taraqqiyotni oshirishda hamda mamlakatlarning raqobatdoshlilik darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, texnologiya, iqtisodiyot, korxona, samaradorlik, raqobatdoshlik, avtomatlashtirish.

Abstract: In this thesis, it is mentioned that innovation and technology are important in increasing economic development and increasing the level of competitiveness of countries.

Key words: Innovation, technology, economics, enterprise, productivity, competitiveness, automation.

Аннотация: В данной тезис отмечается, что инновации и технологии играют важную роль в ускорении экономического развития и повышении уровня конкурентоспособности стран.

Ключевые слова: Инновации, технологии, экономика, предприятие, производительность, конкурентоспособность, автоматизация.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda"[1], deb aytib o'tgan.

L.A. Milkinova o'z tadqiqotida "innovatsiya" tushunchasiga turlicha qarashlarni o'rganadi. Ba'zi olimlar innovatsiyaga yangi kirish deb nomlasa, boshqalari esa innovatsion faoliyat natijasi yoki innovatsion loyihalarga sarmoya sifatida qarashadi. Innovatsiyalr bu ilmiy va tadbirkorlik faoliyati deb qaraladi va iqtisodiy kategoriya sifatida innovatsiyalar zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan iqtisodiy jihatdan samarali va texnologik jihatdan muhim o'zgarishlarni amalga oshiradigan bilimdir. Innovatsiyalarning ahamiyati tobora ortib borayotganini inobatga oladigan bo'lsak, innovatsion jarayon, innovatsion salohiyat va raqamlashtirish kabi tushunchalar bir-biri bilan chambarchars bog'liqligi tabiiy holdir. Bu jihat innovatsion rivojlanish dinamikasini ko'rsatadigan harakat elementlarining mavjudligini tasdiqlaydi.[2]

Shu o'rinda, tez o'zgarib borayotgan bugungi dunyoda innovatsiyalar va texnologiyalarning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Texnologiya misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanishda davom etar ekan, korxonalar va tarmoqlar doimiy ravishda samaradorlik, mahsuldorlik va raqobatdoshlikni oshirishning yangi

usullarini izlamoqda. Innovatsiyalarga tinimsiz intilish nafaqat alohida kompaniyalarga foyda keltiradi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiyalar davlat uchun katta eshiklarni ochib beradi, chunki innovatsion faoliyat YAIMning o'sishini hamda turli tarmoqlarning rivojlanishi ta'minlaydi. Shuni inobatga olish kerakki, innovatsiyaning asosiy samarasi mehnat unumdorligini oshirishda ko'riladi, hamda bu yo'lga turli xil soha va yo'nalishlarda texnologik yutuqlarga erishish orqali erishiladi. Hozirgi bosqichda yutuqli innovatsiyalar sanoatning rivojlanish vektori va o'sish sur'atlarini tasvirlaydi. Masalan, global miqyosda avtomobilsozlik sanoati tomonidan yaratilgan qiymatning umumiy miqdori prognozlariga ko'ra, 2017-yildagi 3,5 trillion dollardan 2030-yilda 6,6 trillion dollargacha oshadi. O'z navbatida, hozirgi bosqich bozorning 98%ni egallagan an'anaviy texnologiyalar va biznes modellarining ulushi esa 50%gacha kamayadi.[3]

Bundan tashqari, innovatsiyalar va texnologiyalar sanoatning samaraorligi va mahsuldorligini oshirishda kuchli katalizator bo'lib xizmat qiladi, jahon miqyosida raqobatdoshlikni oshirishga zamin yaratadi. Avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va raqamlashtirish orqali korxonlar operatsiyalarni soddalashtirishi, jarayonlarni optimllashtirishi va arzon narxlarda yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarni taqdim etishi mumkin. Bu yuqori samaradorlik nafaqat rentabellikni oshiradi, balki mamlakatga xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar kirishini ta'minlaydi hamda ko'proq ishchilarni yollashga imkon yaratadi.

Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, innovatsiyalar va texnologiyalarning jamiyatdagi ta'sirini ham chetda qoldirmaslik kerak, chunki sog'liqni saqlash, qayta tiklanadigan energiya va barqaror rivojlanish sohasidagi ulkan yutuqlar jamiyat tuzulishini tubdan o'zgartirmoqda va fuqarolarning hayot sifatini oshirmoqda. Texnologik innovatsiyalar insonlar umrini uzaytiriruvchi inqilobiy tibbiy muolajalardan tortib, iqlim o'zgarishiga qarshi ekologik toza energiya yechimlarigacha misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ushbu rivojlanishlar nafaqat iqtisodiy barqaror kelajakni balki dunyo aholisiga tez rivojlanib borayotgan olamda gullab-yashnash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishlari zarur. Innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratish, ilmiy sohalar, sanoat va hukumat o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va ilg'or texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali davlatlar o'zlarini global iqtisodiy rivojlanishda yetakchi o'ringa qo'yishi kerak. innovatsiyalarni strategik ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilish barqaror iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va fuqarolarning turmush darajasini oshirishga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. http://uza.uz

2. Мыльникова Л.А. Инновации и цифровизация российской экономики // Экономический журнал. -2019. №1(53). - С. 107-119.

3. Ковалев И.Л. Цифровая трансформация как катализатор инновационных процессов в экономике // Большая Евразия: Развитие, безопасность, сотрудничество. – 2019. - №2 – 1. – Б. 374-380.